Kokand University

UZLUKSIZ TA’LIM:

XALQARO TAJRIBA, INNOVATSIYA VA TRANSFORMATSIYA MASALALARI

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLAR TO‘PLAMI



Uzluksiz ta’lim: xalqaro tajriba, innovatsiya va transformatsiya masalalari

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

QO‘QON – 2025

Tahrir kengashi raisi

G‘.E.Zaxidov – Qo‘qon universiteti direktori

Tahrir kengashi:

1. **Zebo Qobilova** – Qo‘qon universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
2. **Jamoliddin Qambarov** – Qo‘qon universiteti akademik ishlar bo‘yicha prorektori, iqtisod fanlari doktori (DSc), dotsent.
3. **Muhammadjon Najmiddinov** – Ta’lim fakulteti dekani, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
4. **Akmal Mahkamov** – Ta‘lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
5. **Shahnoza Lumanova** - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
6. **Boburmirzo Xursanaliyev** – Qo‘qon universiteti ilmiy tadqiqotlar departamenti boshlig‘i.
7. **Botir Aminov** – Qo‘qon universiteti dotsenti.

Konferensiya materiallarini nashrga tayyorlaganlar:

Hilola Raimova, Nargiza Valiyeva, Sevara Mahmudova, Rahmonjon Ashuraliyev

20. Qobilova, E. (2024). The Significance Of Interdisciplinary Connection In The Formation Of Music Literacy In Children With Hearing Defect In Music Lessons. Uzbekistan Educational Research Journal, 1(1).

21. Qobilova, E. B., Toshpolatova, S., Muhammadjonova, M., Muninova, M., Baxromova, M., & Rahimova, D. (2023). QADIMIY MUSIQIY SAN’ATNING SHAKLLANISH JARAYONI. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 560-565.

O‘ZBEK ADABIY TILIDA TALAFFUZ ME’YORLARINING SHAKLLANISH VA O‘ZGARISH TAMOYILLARI

D.Sh. Egamnazarova,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti.

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek adabiy talaffuz me’yorining tarixiy tarkib topishi va hozirgi davrdagi harakatini belgilovchi tamoyillar tizimli tarzda talqin etiladi. Tayanch shevalar tanlovi, grafika islohotlari, o‘zlashma qatlamning fonetik moslashuvi hamda ommaviy nutq muhitining ta’siri me’yor, uzus va kodifikatsiya munosabati nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari talaffuz me’yorini qotib qolgan qoidalar majmui emas, balki «egiluvchan barqarorlik»ka ega dinamik hodisa sifatida baholash zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: orfoepiya, talaffuz me’yori, kodifikatsiya, uzus, variantlilik, tayanch sheva, o‘zlashma so‘z, egiluvchan barqarorlik.

Abstract. The article offers a systematic account of the principles underlying the historical formation of the Uzbek literary pronunciation norm and its present-day dynamics. The choice of base dialects, script reforms, phonetic adaptation of

loanwords and the impact of the mass speech environment are examined through the relationship between norm, usage and codification. The findings support treating the orthoepic norm as a dynamic phenomenon characterised by «flexible stability» rather than as a fixed set of rules.

Keywords: orthoepy, pronunciation norm, codification, usage, variation, base dialect, loanword, flexible stability.

Kirish

Adabiy til me’yorlari orasida talaffuz qatlami eng dinamik, ayni chog‘da kodifikatsiyaga eng qiyin bo‘ysunadigan soha hisoblanadi[32]: imlo qoidasi davlat hujjati bilan qisqa fursatda o‘zgarishi mumkin, og‘zaki nutq odatlari esa avlodlar almashinuvi davomidagina qayta shakllanadi. O‘zbek tilida vaziyat yanada murakkab, zero adabiy til XX asrda qisqa muddat ichida 3 marta yozuv almashinuvini boshdan kechirdi, uning tayanch shevalari masalasi esa uzoq bahslar mavzusi bo‘lib keldi.

O‘zbek orfoepiyasiga oid ilmiy izlanishlar 1920–1930-yillarda, adabiy tilning dialektal asosini belgilash zarurati tug‘ilganda boshlangan. Ye.D. Polivanov o‘zbek shevalarini tasniflash barobarida adabiy talaffuzni eronlashgan shahar shevalariga tayantirish g‘oyasini asoslab bergan edi[33]. Keyingi davrda V.V. Reshetov va Sh. Shoabdurahmonov dialektologik zamin yaratgan bo‘lsa[34], A. Abduazizov fonologik tizimni, M. Mirtojiyev esa fonetik birliklarning nutqdagi reallashuvini me’yor nuqtayi nazaridan chuqur tavsif etdi[35].

[32] Egamnazarova D. S. Gap semantikasi masalasi //Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Research. – 2021. – №. 1. – С. 120-127.
[33]Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгиз, 1933.
[34]Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
[35]Abduazizov A.A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992; Mirtojiyev M. O‘zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.

Nazariy jihatdan tadqiqot E. Koseriuning «tizim – me’yor – nutq» uchligiga tayanadi: me’yor tizim ruxsat bergan imkoniyatlardan jamoa tomonidan an’anaviy tarzda tanlab olingan qatlam sifatida tushuniladi[36]. Praga lingvistik to‘garagi ilgari surgan «egiluvchan barqarorlik» (V. Mateziusdagi *pružná stabilita*) tushunchasi[37] va R.I. Avanesovning «katta» hamda «kichik» me’yor haqidagi qarashi[38] esa me’yor dinamikasini izohlashda tayanch vosita vazifasini bajaradi.

Masalaning dolzarbligi davlat tili siyosatidagi so‘nggi yillar yangilanishlari bilan ham belgilanadi: o‘zbek tilining nufuzini oshirishga qaratilgan normativ hujjatlarda nutq madaniyati, ommaviy axborot vositalari tili va lotin yozuviga to‘liq o‘tish vazifalari alohida qayd etilgan[39].

1. Talaffuz me’yorining shakllanish tamoyillari

Dialektal tayanch tamoyili. Adabiy talaffuzning tayanchi sifatida siyosiy-madaniy markaz shevalari tanlanadi; o‘zbek tilida bu vazifani qarluq-chigil lahjasiga mansub Toshkent va Farg‘ona vodiysi shahar shevalari bajardi. Ushbu guruhning farqlovchi belgisi – singarmonizmning deyarli to‘liq yemirilgani va 6 unli fonemadan iborat tizim. Tanlovning mohiyati qipchoq hamda o‘g‘uz shevalari bilan qiyoslaganda yaqqol ko‘rinadi: qipchoq shevalaridagi *bala, ata* adabiy tilda lablangan quyi-keng unli bilan *bola [bɔla], ota [ɔta]* tarzida, singarmonik shevalardagi *kelgen* esa *kelgan* shaklida talaffuz etiladi. 1929-yilgi lotin alifbosida 9 unli harfining mavjudligi singarmonistik yo‘nalish hali kun tartibidan

[36]Косериу Э. Синхрония, диахрония и история // Новое в лингвистике. Вып. 3. – Москва: Изд-во иностранной литературы, 1963.
[37]Mathesius V. O požadavku stability ve spisovném jazyce // Spisovná čeština a jazyková kultura. – Praha: Melantrich, 1932.
[38]Аванесов Р.И. Русское литературное произношение. – Москва: Просвещение, 1984.
[39]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5850-son Farmoni.

tushmaganini ko‘rsatadi; 1934-yilgi imlo islohotidan so‘nggina unlilar tizimi tayanch shevalar asosida qat’iy belgilandi[40].

Tarixiy vorislik tamoyili. Yangi adabiy til eski o‘zbek adabiy tilining leksik-fonetik merosini, xususan, arabcha va forscha qatlam talaffuzini o‘zlashtirib oldi. Ayn va hamza tovushlari o‘rnida yuzaga keladigan cho‘ziqlik yoki bo‘g‘iz portlovchisi shunday meros unsurlardandir: *ma’no [ma:nɔ], she’r [ʃe:r], ta’lim [ta:lim], san’at [sanʔat]*. Tutuq belgisi yozuvda saqlanib qolgan ekan, u talaffuzda ham ma’lum darajada qo‘llab-quvvatlanib turadi – grafika va orfoepiya o‘rtasidagi o‘zaro tayanch ana shunda namoyon bo‘ladi.

Grafik-orfografik muvofiqlik tamoyili. Yozuv talaffuzni barqarorlashtiruvchi omil hisoblansa-da, orfoepiya imloning aynan nusxasi bo‘lmaydi. Amaldagi imlo qoidalari asosan morfologik tamoyilga suyanadi[41], talaffuz esa fonetik qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Buning natijasi o‘laroq yozilish va aytilish o‘rtasida muntazam, oldindan bashorat qilinadigan tafovutlar paydo bo‘ladi: so‘z oxiridagi jarangli undoshning jarangsizlanishi – *kitob [kitɔp], maqsad [maqsat]*; qo‘shni undoshlar assimilyatsiyasi – *tuzsiz [tussiz], yozsa [jɔssa], ketdi [ketti]*. Orfoepik me’yor ushbu tafovutlarni «xato» emas, balki adabiy talaffuzning tarkibiy qismi sifatida qayd etadi[42].

Umumtushunarlilik tamoyili. Adabiy talaffuz tayanch shevaga tayansa-da, uning barcha xususiyatlarini takrorlamaydi: tor hududiy belgilar me’yordan chetlashtiriladi va shu yo‘l bilan turli lahja vakillari uchun neytral namuna yaratiladi. Chunonchi, Toshkent so‘zlashuv nutqiga xos *kevotti, borvotti* shakllari adabiy tilda *kelyapti, boryapti* bilan almashtiriladi; *h* va *x* tovushlarining ayrim

[40]Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. Ko‘rsatilgan asar; Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
[41]O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 339-son qarori.
[42]Mirtojiyev M. Ko‘rsatilgan asar.

shevalardagi qorishuviga qaramay, adabiy talaffuz *hol – xol, hush – xush* kabi farqlovchi juftliklarni saqlaydi.

Institutsional kodifikatsiya tamoyili. Uzusda shakllangan namuna maktab darsliklari, normativ grammatikalar, lug‘atlar, teatr sahnasi va radio diktorlari nutqi orqali qonunlashtiriladi[43]. Kodifikatsiya me’yorni yaratmaydi – u jamoa nutqida allaqachon tanlab olingan variantni rasmiy maqomga ko‘taradi, biroq keyinchalik o‘zi ham me’yorni ushlab turuvchi kuchga aylanadi. Talaffuz lug‘atining yo‘qligi yoki cheklangan tarqalishi o‘zbek orfoepiyasi uchun hozirgacha dolzarb muammo bo‘lib qolayotganini ham e’tirof etish joiz[44].

2. Talaffuz me’yorining o‘zgarish tamoyillari

Variantlilik va me’yorlar almashinuvi tamoyili. Har qanday talaffuz me’yori ma’lum davrda raqobatlashuvchi variantlarni o‘z ichiga oladi: keksa avlod nutqida saqlanib qolgan «katta» me’yor yosh avlodga xos «kichik» me’yor bilan yonma-yon yashaydi, so‘ngra asta-sekin chekinadi. O‘zbek tilida bu jarayonning eng yorqin namunasi *f* undoshi taqdiri bilan bog‘liq: XX asr o‘rtalarigacha keng tarqalgan *pabrika, pikr, poydalanmoq* talaffuzi bugun adabiy nutqda deyarli uchramaydi, [f] esa to‘laqonli fonema maqomini egallagan. So‘z boshidagi undoshlar birikmasini yorish uchun qo‘shiladigan protetik unli ham xuddi shu yo‘ldan borgan: *istakan, istansiya, ishkap* variantlari o‘rnini *stakan, stansiya, shkaf* egalladi. Bu o‘zgarishlarning ortida ichki fonetik qonuniyat emas, balki ijtimoiy omil – ommaviy bilingvizmning chuqurlashuvi turadi[45].

O‘zlashmalarni moslashtirish tamoyilining zaiflashuvi. Ilgari o‘zlashma so‘z o‘zbek fonetik tizimiga to‘liq moslashtirilgan bo‘lsa, XXI asr boshidan buyon manba tildagi talaffuzni saqlab qolish tendensiyasi kuchaymoqda. Vositachi tilning

[43]Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
[44]Abduazizov A.A. Ko‘rsatilgan asar.
[45]Jamolxonov H. Ko‘rsatilgan asar.

almashinuvi ayniqsa e’tiborli: inglizcha so‘zlar ilgari rus tili orqali kirib kelgan bo‘lsa, bugun ular bevosita qabul qilinadi. Masalan, *j* harfi o‘zbek yozuvida ham [dʒ], ham [ʒ] tovushini ifodalaydi (*jo‘ja [dʒo‘dʒa]*, lekin *jurnal [ʒurnal]*); *menejer, imij, brending* singari yangi o‘zlashmalarda yosh so‘zlovchilar tobora [dʒ] ni afzal ko‘rmoqda, holbuki rus tili orqali kirgan qatlamda [ʒ] odatiy bo‘lgan. Boshqacha aytganda, o‘zlashma talaffuzi endi vositachi til emas, manba til me’yoriga yo‘naltirilmoqda.

Grafika islohotlarining qayta ta’siri tamoyili. Yozuv almashinuvi faqat grafik birliklarni emas, balki talaffuz odatlarini ham qayta qurishi mumkin. 1995-yilgi imlo qoidalariga ko‘ra rus tilidan o‘zlashgan so‘zlardagi *ц* harfi so‘z boshida va undoshdan keyin *s*, unlidan keyin esa *ts* bilan beriladi[46]: *sirk, sement, sex, stansiya*, ammo *litsey, militsiya*. Kirill yozuvida *цирк, цемент* shaklida yozilib, affrikata bilan aytilgan so‘zlar lotin grafikasi bilan savod chiqargan avlod nutqida [s] bilan talaffuz etila boshlandi. Bunday «yozuvga ko‘ra talaffuz» hodisasi me’yor manbayi og‘zaki nutqdan yozma nutqqa ko‘chishi mumkinligini isbotlaydi.

Ommaviy nutq muhitining ta’siri tamoyili. XX asrda radio va televideniye diktori adabiy talaffuzning jonli etaloni vazifasini o‘tagan. Raqamli muhitda esa bu mavqe sezilarli darajada yemirildi: ijtimoiy tarmoqlar va bloglar orqali so‘zlashuv, ba’zan shevaviy talaffuz ommaviy auditoriyaga to‘g‘ridan to‘g‘ri yetib bormoqda. Natijada tutuq belgisi bilan bog‘liq talaffuzning susayishi kuzatiladi: *ma’lumot [ma:lumɔt] ~ [malumɔt], san’at [sanʔat] ~ [sanat]*. Qolaversa, jonli nutqqa xos qisqarishlar ommaviy efirga ham kirib bormoqda, bu esa «katta» va «kichik» me’yor o‘rtasidagi chegarani yanada xiralashtiradi[47].

Til tejamkorligi va aniqlik o‘rtasidagi ziddiyat tamoyili. Talaffuzdagi har qanday o‘zgarish talaffuz kuchini tejash intilishi bilan eshituvchining aniq idrok

[46]O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori.
[47]Аванесов Р.И. Указ. соч.

etish ehtiyoji o‘rtasidagi murosadan kelib chiqadi. Jarangsiz undoshlar orasidagi yuqori tor unlilarning reduksiyasi (*kitob [k(ɪ)tɔp], tushdi [t(ʊ)ʃti]*) adabiy me’yor tomonidan allaqachon tan olingan. Aksincha, so‘z oxiridagi undoshlar guruhining soddalashuvi – *do‘st [do‘s], go‘sht [go‘ʃ]* – so‘zlashuv uslubida keng tarqalgan bo‘lsa-da, rasmiy nutq me’yori sifatida hanuz qabul qilinmagan. Me’yor tejamkorlik bosimiga faqat semantik farqlanish xavf ostida qolmagan nuqtalardagina yon beradi.

Til siyosati va ongli boshqaruv tamoyili. 1989-yilgi «Davlat tili haqida»gi qonun va 2019-yilgi farmondan so‘ng o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi kengaydi, nutq madaniyatiga talab esa davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi[48]. Til siyosati talaffuzga bevosita buyruq bera olmasa-da, ta’lim, efir va ish yuritish sohalarida namunaviy nutqqa ehtiyojni oshirib, kodifikatsiyaning yangi bosqichiga zamin tayyorlaydi.

1-jadval

O‘zbek adabiy talaffuz me’yorining shakllanish va o‘zgarish tamoyillari

Tamoyil	Harakat yo‘nalishi	Misol
Dialektal tayanch	Shakllantiruvchi	*bala → bola [bɔla]*
Tarixiy vorislik	Shakllantiruvchi	*she’r [ʃe:r]*
Grafik-orfografik muvofiqlik	Shakllantiruvchi	*kitob [kitɔp]*
Umumtushunarlilik	Shakllantiruvchi	*kevotti → kelyapti*
Institutsional kodifikatsiya	Barqarorlashtiruvchi	darslik, lug‘at, diktor nutqi
Variantlilik	O‘zgartiruvchi	*pabrika → fabrika*
Manba tilga yo‘nalish	O‘zgartiruvchi	*menejer [ʒ] ~ [dʒ]*
Grafikaning qayta ta’siri	O‘zgartiruvchi	*цемент → sement [s]*
Ommaviy nutq muhiti	O‘zgartiruvchi	*san’at [sanʔat] ~ [sanat]*
Tejamkorlik va aniqlik	O‘zgartiruvchi	*kitob [k(ɪ)tɔp]*
Til siyosati	Barqarorlashtiruvchi	normativ-huquqiy hujjatlar

[48]O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni, 1989-yil 21-oktyabr; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son Farmoni.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil o‘zbek adabiy talaffuz me’yorini boshqaruvchi tamoyillarni 3 guruhga ajratish imkonini berdi. Shakllantiruvchi tamoyillar (dialektal tayanch, tarixiy vorislik, grafik-orfografik muvofiqlik, umumtushunarlilik) me’yorning ichki qiyofasini belgilagan; barqarorlashtiruvchi tamoyillar (institutsional kodifikatsiya va til siyosati) uni saqlab turadi; o‘zgartiruvchi tamoyillar esa ijtimoiy-kommunikativ muhit bilan hamnafas holda me’yorni muttasil yangilab boradi.

Me’yor harakatining asosiy manbayi tizimning ichki qonuniyatlari emas, balki ijtimoiy omillar ekani aniqlandi: *f* fonemasining barqarorlashuvi, protetik unlining yo‘qolishi, *ų* > *s* almashinuvi ommaviy bilingvizm, yozuv islohoti va ta’lim tizimi ta’sirida kechgan. Ichki fonetik tendensiyalar – reduksiya, assimilyatsiya, undoshlar guruhining soddalashuvi – faqat semantik farqlanishga xavf tug‘dirmagan hollardagina me’yor maqomiga ko‘tariladi.

Raqamli nutq muhitining kengayishi diktor nutqiga tayangan an’anaviy kodifikatsiya modelini zaiflashtirdi, shu bois zamonaviy orfoepik tadqiqot korpus ma’lumotlari va eksperimental-fonetik o‘lchovlarga tayanishi lozim. Amaliy jihatdan esa variantlarni «tavsiya etiladi», «yo‘l qo‘yiladi», «tavsiya etilmaydi» belgilari bilan farqlovchi o‘zbek tilining orfoepik lug‘atini yaratish, lotin yozuviga to‘liq o‘tish bosqichida talaffuz va imlo munosabatini alohida me’yoriy hujjatda qayd etish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi. Zero, «egiluvchan barqarorlik» sharti bajarilgandagina adabiy talaffuz jamoa uchun ham tanish, ham zamonaviy namuna bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni. – Toshkent, 1989-yil 21-oktyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 339-son qarori. – Toshkent, 1995-yil 24-avgust.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5850-son Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 21-oktyabr.

4. Abduazizov A.A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.

6. Mirtojiyev M. O‘zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.

7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.

8. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.

9. Egamnazarova D. S. Gap semantikasi masalasi //Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Research. – 2021. – №. 1. – С. 120-127.

10. Аванесов Р.И. Русское литературное произношение. – Москва: Просвещение, 1984.

11. Косериу Э. Синхрония, диахрония и история // Новое в лингвистике. Вып. 3. – Москва: Изд-во иностранной литературы, 1963.

12. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгиз, 1933.

13. Mathesius V. O požadavku stability ve spisovném jazyce // Spisovná čeština a jazyková kultura. – Praha: Melantrich, 1932.

N.K.Kosimova. E. Heminguey povestlarida qo‘llangan ingliz tilidagi ergash gapli qo‘shma gaplarning struktur-semantik tabiati va ularning o‘zbek tiliga tarjimada aks etish mexanizmlari……..579
М.И.Тожиддинова. Инновационные методы развития коммуникативной компетенции……..……..583
M.M.Axmedova. Raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinflarda o‘qitish metodlarining transformatsiyasi……..…….588
Sh.D.Ergashev. O‘zbek qahramonlik eposida jismoniy tarbiyaning milliy sport an’analari bilan bog‘liqligi: tarixiy-pedagogik tahlil……..……..598
N.O.Javharova. Jadid pedagogikasida til va imlo masalasi……611
U.U.Melikuziyev. Mumtoz lirika namunalarini oliy ta’limda o‘qitish (Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy ijodi misolida)…….…….619
G.Ibrohimova. Bolalar xalq o‘yinlarini tasniflash masalasiga doir…..……628
M.O.Baxtiyorova. Pedagogik merosni o‘rganishning zamonaviy metodologik yondashuvlari va ularning evristik imkoniyatlari (Hamza Hakimzoda Niyoziy merosi misolida)……636
S.G‘.Shamsiddinova. Doston matni bilan ishlashning interfaol texnologiyalari……..……..645
S.A.Tangatarova. Umumiy o‘rta ta’limda o‘zbek tili darslarida kompetensiyaviy yondashuv asosida topshiriqlar tizimini takomillashtirish……654
Z.Teshaboyeva. “Go‘ro‘g‘li” turkumining manbashunoslik va matnshunoslik asoslari: pedagogik tadqiqot uchun metodologik zamin……..……662
E.B.Qobilova. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida strategik pedagogik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari…..……669
D.Sh. Egamnazarova. O‘zbek adabiy tilida talaffuz me’yorlarining shakllanish va o‘zgarish tamoyillari……..677